

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dasturi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 6 iyuldagi MMO dastur tasdiqlash ro'yxati asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi		Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi	
Kafedra/ bo'lim		Pediatriya va bolalar ovqatlanishi	
O'quv dastur nomi		“Bolalar gastroenterologiyasi va ovqatlanishi masalalari”	
O'qish turi		Mavzuiy malaka oshirish	
O'quv dastur muallifi/ mualliflari		I.M. Axmedova, I.D.Nazarova, Sh.S.Sultanxadjaeva	
Siklning umumiy soati		144 kredit	
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar			
			
Kafedra mudiri, t.f.d. Axmedova I.M.	t.f.n, dosent Nazarova I.D.	t.f.n, dosent Sultanxadjaeva Sh.S.	
Maqsad		Jahon va mahalliy sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni hisobga olgan xolda, malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda bolalar gastroenterologiyasi va ovqatlanishi masalasida shifokorlarning bilimini muntazam ravishda yangilab borish va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish.	
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent		Pediatriklar, bolalar gastroenterologlari,, oilaviy shifokorlar, bolalar tor mutaxassislari	
Sikl vazifalari		1. Vrachlarda bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish, sog'lom bola va o'smirlarni dispanserizatsiyasi tamoyillari, kasalliklarni oldini olish maqsadida tibbiy sanitariya va profilaktik yordamni tashkillashtirish borasidagi bilimlarni takomillashtirish; 2. Shifokorlarda isbotlangan tibbiyot asoslarini bolalar gastroenterologiyasi sohasida amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalarini shakllantirish; 3. Vrachlarda bolalar gastroenterologiyasi soxasidagi so'nggi klinik protokollar va standartlar	

	asosida ishlash, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarida yangi texnologiya va uslublarni o'zlashtirish, hamda ular yordamida o'z vaqtida tashhis qo'yish ko'nikmalarini takomillashtirish. 4. Vrachlarning oshqozon ichak tizimi kasalliklarini davolash borasidagi bilimlarini zamonaviy talablar darajasida chuqurlashtirish; 5. Vrachlarning bolalarni oshqozon-ichak kasalliklarida rasional ovqatlantirish, bemor bolalarga parhez ovqatlar belgilash borasidagi bilimlarini takomillashtirish; 6. Gastroenterolog vrachlarda kasbiy mahoratini, klinik fikr yuritishini, murakkab patologiyalarni to'g'ri baholab, hamda mutaxassis sifatida gastroenterolog oldiga qo'yilgan talablarni unumli echish ko'nikmalarini shakllantirish.
Sikl tarkibi	1-modul: Sog'liqni saqlash tizimi birlamchi bo'g'inida profilaktika -sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkillashtirishdagi yangiliklar. Isbotlangan tibbiyot 2-modul: Bolalarda ovqat xazm qilish a'zolarining funksional buzilishlarini so'nggi (IV) Rim kriteriyalari asosida tashhishlash va davolash uslublari 3-modul: Me'da va o'n ikki barmoqli ichak kasalliklarini so'nggi V Maastrixt konsensusi tavsiyalari asosida yangi tashhishlash va davolash usullari. 4-Modul: Bolalarda ichak kasalliklarining zamonaviy diagnostika va davolash usullari 5-Modul. Bolalarda gepatobiliar tizimi va oshqozon osti bezi surunkali kasalliklarini zamonaviy tashhishlash, davolash va profilaktika usullari 6 - 6-modul: Bemor bolalar ovqatlanishining zamonaviy tamoyillari
O'qish bazalari: 1. Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy markazi 2. Toshkent shaxar ko'ptarmoqli shifoxonasi	Barcha zamonaviy tekshirish, davolash va lavlaboratoriya jixozlari bilan ta'minlangan.

